

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE CONCEPT OF INTEGRATIVITY AND INTEGRATIVE ANALYSIS IN LINGUISTICS****Roxila Abdullayeva**

Doctoral student

*Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: integration, integrativity, paradigm, language unit, integrative analysis, method, anthroponyms.

Received: 12.10.25**Accepted:** 13.10.25**Published:** 14.10.25

Abstract: This article provides information about the concept of integration, which is widely used in linguistics today, and the concepts of integrative methods, which are relevant in linguocognitive research. Theoretical views related to the phenomenon in Uzbek and Russian linguistics and their analysis are presented. It is explained that the concept of integrative method in linguocognitive research reflects the flexibility of the concept, the diffusion of methods is due to the nature of the language units selected for study, and the composition of the method consists of general philosophical and special methods. As an example, a one-sided analysis of the word fox, which refers to human character in a figurative sense, is given.

TILSHUNOSLIKDA INTEGRATIVLIK VA INTEGRATIV TAHLIL TUSHUNCHASI**Roxila Abdullayeva***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*
*doktoranti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: integratsiya, integrativlik, paradigma, til birligi, integrative tahlil, metod, antroponimantlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda tilshunoslikda keng qamrovga ega bo'lgan integratsiya tushunchasi va lingvokognitiv tadqiqotlarda dolzarb bo'lgan integrativ metod tushunchalari haqida ma'lumot beriladi. O'zbek va rus tilshunosligida hodisaga aloqador nazariy qarashlar va ularning tahlili keltiriladi. Lingvokognitiv tadqiqotlarda integrativ metod

tushunchasining moslashuvchanlik xususiyatini aks ettirishi, metodlar diffuziyasi tadqiq uchun tanlab olingan til birliklarining xususiyatidan kelib chiqishi, metod tarkibi umumfalsafiy va maxsus usullardan iborat bo'lishi bayon qilinadi. Misol tariqasida ko'chma ma'noda inson xarakteriga ishora qiluvchi tulki so'zining bir tomonlama tahlili keltiriladi.

ПОНЯТИЕ ИНТЕГРАТИВНОСТИ И ИНТЕГРАТИВНОГО АНАЛИЗА В ЛИНГВИСТИКЕ

Рохила Абдуллаева

*Аспирантка Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интеграция, интегративность, парадигма, языковая единица, интегративный анализ, метод.

Аннотация: В данной статье представлена информация о понятии интеграции, широко используемом в современной лингвистике, и о понятиях интегративных методов, актуальных в лингвокогнитивных исследованиях. Представлены теоретические взгляды на данное явление в узбекской и русской лингвистике и их анализ. Поясняется, что понятие интегративного метода в лингвокогнитивных исследованиях отражает гибкость понятия, диффузность методов обусловлена природой языковых единиц, выбранных для изучения, а состав метода состоит из общефилософских и специальных методов. В качестве примера приведён односторонний анализ слова «лиса», которое в переносном смысле обозначает человеческий характер.

Ma'lumki, tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi sohalariga integrativ tahlil va integrativ metod tushunchalari tobora kengroq tarqalmoqda. Jumladan, mazkur tahlil usuli zamonaviy lingvokognitiv tadqiqotlarda ahamiyat qaratilishi zarur bo'lgan jihat sifatida talqin qilinmoqda. Rus tadqiqotchisi N.N.Boldirev kognitiv tilshunoslikda amalga oshiriladigan tadqiqotlarda tahlil xalqning madaniy hayotini va tarixini inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi va kognitiv tilshunoslikning lingvokulturologiya bilan izchil bogliqligini aytadi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik tadqiqotlari lingvokulturologiya uchun ham manba vazifasini o'tashini aytadi. Bu qarash o'zbek tilshunosligida ham bir necha mualliflar tomonidan ta'kidlangan. Jumladan, D.Xudoyberganova integrativ tahlil antroposentrik tadqiqotlarning bir

qismi bo'lib, matnni bir vaqtning o'zida intralingvistik va ekstralingvistik jihatdan tahlil qilish zarurati haqida yozadi. Unga ko'ra, bu jarayonda madaniy, ijtimoiy va psixologik jihatlarni ham nazarda tutish maqsadga muvofiq. Eng muhimi esa antroposentrik paradigmaning ikki muhim sohasi kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning nazariy jihatdan boyib borishi. Nazariy jihatdan integrativ tahlilni amalga oshirish zarurati xususida yozilgan ishlar ko'p. Biroq amaliyotda mazkur tahlilni o'tkazish, uning bosqichlari va tadriji, tarkibi haqida tushuntirish berilgan nazariyaga seziladi. Buning uchun dastavval integratsiya tushunchasini atroflicha tahlil qilish zarur. Integratsiya tushunchasi tilshunoslikda bir necha jarayon, holat va h.larni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Galichga ko'ra, tilshunoslik haqidagi dastlabki bilimlarni berish jarayonidayoq o'zaro farqlanishi lozim bo'lgan paradigma va integrativ lingvistika terminlariga to'xtalib o'tish kerak. Paradigma tushunchasi o'zbek tilshunosligi uchun ham faol terminlardan biri bo'lib, tilning ichki va tashqi jihatlariga aloqador holatni ifodalaydi. B.Mengliyev uni shunday ta'riflaydi: "umumiy belgi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar sistemasi paradigma deyiladi" Galichga ko'ra, paradigma uchun xos bo'lgan uch jihat bor. Birinchidan, paradigmada to'liqlik bo'lishi kerak. Paradigma a'zolarining bir-birini taqozo va inkor qilish xususiyati aynan mazkur jihat asosida vujudga keladi.

Ikkinchidan, paradigmalarda ko'p komponentlilik xususiyati aks etadi va bu masalada qarashlar farqli. Xususan, B.Mengliyev paradigmatic munosabat yuzaga kelishi uchun ikki a'zoning ham yetarli ekanligini aytadi.

Uchinchidan, paradigma a'zolariga bir turkumlilik xususiyati xos bo'ladi. Bu borada ihtilof yo'q. Mualliflar bir paradigma a'zolarining shartli ravishda bo'lsa-da bir vazifa uchun yo'nalganligini yoki bir so'z turkumiga mansub bo'lishini inkor qilmaydi.

Galich integrativlik tushunchasini tilshunoslikda ikki o'rinda tushuntiradi: ichki va tashqi. Olimaga ko'ra, ichki integrativlik til birliklari o'rtasidagi struktur, semantik, paradigmatic va sintagmatic munosabatda ko'rinadi, ya'ni ichki intralingvistik munosabat tovush, so'z, so'z birikmasi, gap va matn miqyosida bo'ladi.

Tashqi integratsiya tilning falsafa, psixologiya, SI va boshqa sohalar bilan aloqadorligi asosida yuzaga keladi. Antroposentrik paradigma yo'nalishlari tilni ayni shu jihatdan ya'ni turli sohalar bilan kesishmasida sodir bo'ladigan lingvistik jarayonlarni tahlil qiladi.

N.Nechaeva ichki integratsiya jarayonini tushuntirishda Y.Stepanovdan quyidagi iqtibosni keltiradi: "tovushdan so'z, so'zdan birikma, birikmadan gap hosil bo'lishi – integratsiya emas, til birliklarining o'zgarib, yangi hodisaga aylanishi integratsiyadir". Ma'lumki, til sathlari quyidan yuqoriga bir-biri uchun yasovchi vazifasini bajaradi. Biroq, muallifga ko'ra, bu jarayonning

o'zigina integratsiya tushunchasining mazmunini to'liq yoritib bermaydi. Integratsiya asosida yangi birlikning hosil bo'lishi, til birliklarining birlashib, o'z xususiyatini o'zgartirishi, yangi vazifa olishi integratsiyadir. Umuman olganda, tilshunoslikda integratsiya tushunchasini turlicha tushuntirish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, u til birliklarining va ayni vaqtda tilning boshqa sohalar bilan integratsiyasini ifodalaydi.

Antroposentrik tadqiqotlar uchun muhim bo'lgan jihati, uning metod sifatida qo'llanishidir. Tabiiyki, integrativ tahlil tushunchasi yuqorida til oid integratsiya xususida aytilgan fikrlardan farqli bo'lmaydi. Birlashish jarayoni metod uchun ham taalluqli bo'ladi. Sh.Safarovga ko'ra, "kognitiv tilshunoslikning mustaqil yo'nalish sifatida tarkib topishi ham murakkab jarayon, lisondek o'ta murakkab tadqiq obyektni tanlagan har qanday fan sohasining murakkab muammolar qamrovida qolishi ham muqarrar. Bunday qamrov va qurshovdan qutulish izlanishlarda izchillikni, to'xtovsizlikni, amaliy vositalardan (metodlar, usul va amallardan) foydalanishda muntazamlikni va mustahkam nazariy asosga tayanishni talab qiladi. Demak, lingvokognitiv tadqiqotlarda tadqiq etilayotgan birlikning xususiyatidan kelib chiqqan holda bir necha metodlar kombinatsiyasidan foydalanish mumkin. Integrativ tahlil umumfan metodlari: analiz va sintez; yakkadan umumiyga umumiydan yakkaga; kuzatish, anketa-so'rovnoma bilan bir qatorda kontekst, matn va diskurs ustida ishlashni taqozo qiladi. Tadqiqotchi N. Klushkina mazkur metodni "metodlar diffuziyasi" deb keltiradi. Shu o'rinda tilshunoslikda hodisa va metod sifatida mavjud bo'lgan integratsiya jarayonini jadvalda ifodalaymiz:

Integratsiya:
Til birliklari o'rtasidagi aloqa
Tilning boshqa sohalar bilan aloqasi
Tilni ichki va tashqi sohalar kesimida o'rganuvchi metod

Til birliklari o'rtasida antropominatlar deb yuritiluvchi guruh insonni aks ettiruvchi so'zlarni qamrab oladi. Tabiiyki, bu guruhning katta qismini ko'chma ma'nodagi so'zlar qamrab oladi. Chunki real nutqiy jarayonda kishi shaxsiyatiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish har doim ham imkonsiz bo'lgan. Shunday holatlarda insonga ishora qiluvchi majoziy obrazlar tizimi yuzaga kelgan. Masalan, o'zbek va dunyoning aksar tillarida insonga ishora qiluvchi tulki obrazi bor. Aksar tillarda majoziy tulki obrazi ayyorlik yoki aqllilik xususiyati bilan bog'lanadi. Ijobiy yoki salbiy bo'yodkorligi kontekstdan anglashiladi.

O'zbek tili folklor namunalarida ("Tulki va turna", "Tulki va uzum") mazkur hayvon ustomonlik xususiyati bilan ko'rinadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida tulki so'zi mubolag'ali tarzda "o'ta ketgan makkor, ayyor odam" keltiriladi.

Maqollarda esa “Tulki ming yil hiyla qilsa ham, oxiri mo‘ynasi ochiladi”, “Tulki yo‘lini bilgan, ovchi izini bilmaydi”, “Tulki eshikda bo‘lsa, tovuq tinch uxlamaydi”, “Tulki ko‘p yugurib, terisini yo‘qotgan”, “Tulki tumshug‘idan ilinar” tarzida qo‘llanishi bor.

O‘zbek tilining etimologik lug‘atida A.M.Sherbak o‘z asarida V.Bangning bu so‘z tarkibida metateza voqe bo‘lgani, to‘lki so‘zi asli to‘k (“soch”, “qil”) otidan –li qo‘shimchasi bilan yasalgani haqidagi fikrni keltirgan . Diaxron aspektida so‘z ma‘nosiga yuklangan konnotativ ma‘no anglashilmaydi. Demakki, so‘zning ko‘chma ma‘nosi unga keyinchalik qo‘shilgan.

Tulki so‘zining bugungi kun til egalari nutqida ko‘chma ma‘nolarini so‘rov tajriba orqali, til tashuvchilari ongidagi variantlarini o‘rganish esa badiiy, publististik matnlari tekshirish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, istalgan til birliklarini lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish jarayoni kompleks jarayoni bo‘lib, til egasi, matn va diskurs bilan ishlalni taqozo qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, integratsiya tushunchasi tilning ichki va tashqi holati bilan aloqador bo‘lgan birikish, qo‘shilish jarayonini aks ettiradi va bu haqda tilshunoslarning qarashlari turlicha. Muhimi, asosiy jihat bog‘lanishning vujudga kelishi. Til birliklaridan tashqari tilning o‘zi ham ijtimoiy muhit va turli sohalar bilan integratsiya qiladi va shu asosda tilning tashqi integratsiyasi vujudga keladi. Metod sifatida tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda umumiy va maxsus metodlarning diffuz holda qo‘llanishini nazarda tutadi. Shudan kelib chiqqan holda tilda yagona tarkibga ega bo‘lgan integrativ metod haqida xulosa qilishning imkoni yo‘q. Dunyo va o‘zbek tilshunosligida mazkur metodlarning sohalarga ixtisoslashgan variantlarini nazariy nuqtayi nazardan yoritgan adabiyotlarga ehtiyoj bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Mengliyev. Hozirgi o‘zbek tili. T.: “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti, 2018. 49-b.
2. Д. Худойберганава. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Т: “Фан” нашриёти, 2013. 133 б.
3. Г. Галич. Научная парадигма интегративной лингвистики // Вестник Шадринского государственного педагогического университета, 2019. С – 298-302.
4. Н.Н. Болдырев. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. С – 18-34
5. Н. Клущкина. Дискурология и стилистика: Интегративные методы исследования медиа коммуникации // Russian journal of linguistics, 2016. С – 78-90.
6. Н.А.Нечаева. Интегративность как свойство языковых единиц // Вестник Волгоградского государственного университета, 2016. С – 188-195.
7. Mualliflar jamoasi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T – “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. -186-b.

8. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. I jild. T.: “Universitet”, 2000. 358-b.
9. Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: “Sangzor”, 2006. 91 b.